

DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF MUOMOLASI UCHUN JAVOBGARLIK

Yusufbekov Sardorbek Azizbek o`g`li

O`zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

3-bosqich 304-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada diniy mazmundagi material so`ziga qisqacha ta`rif berildi. Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xi洛f muomolasi va ularni saqlash shuningdek olib kirish va diniy mazmundagi materiallarni saqlash, tayyorlash va ularning turlari, va xorij tajribasi shuningdek javobgarlik masalalari haqida yoritib berilgan.

Аннотация в данной статье дано краткое определение понятия «материал религиозного содержания» Незаконное обращение с материалами религиозного содержания и их хранение, а также ввоз и хранение, изготовление и виды материалов религиозного содержания, а также зарубежный опыт и вопросы ответственности выделены.

Kalit so`zlar: diniy material, diniy materiallarni saqlash, diniy materiallarni tayyorlash, din ishlari bo`yicha qo`mita, galogramma, diniy mazmundagi adabiyotlar va urush, zo`ravonlik, terrorizm, shuningdek, ekstremizm, separatizm, diniy aqidaparastlik yoki mutaassiblik bilan yo`g`rilgan g`oyalarni targ`ib qilish tayanch tushunchalar.

Diniy mazmundagi materiallar – dunyodagi turli dirlarning asoslari, tarixi, mafkurasi, ta`limoti va sharhlari hamda marosimlarini o`tkazish amaliyotini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqlar va boshqa bosma nashrlar, audiovizual asarlar (tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozmalari, multfilmlar, anime, xentay va shu kabilar), axborot tashuvchi elektron jismlar (disketlar, CD, DVD disklari, Internet tarmog`ida joylashtirilgan materiallar va shu kabilar).

dinshunoslik ekspertizasi (keyingi o`rinlarda — ekspertiza) — vakolatli organ tomonidan materiallarni O`zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish, tarqatishga ruxsat berish (ruxsat bermaslik) masalasini hal etish uchun ularda amaldagi qonunchilikka zid elementlar, diniy qonun-qoidalardan og`ishganlik yoki buzib ko`rsatishning mavjud yoki mavjud emasligiga oid tadqiqotlar o`tkazish.

olib kirish — xorijda tayyorlangan materiallarni O`zbekiston Respublikasi hududiga yetkazib berishning har qanday shakli;

tayyorlash — O`zbekiston Respublikasi hududida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog`i, axborotni uzatish va tarqatishning boshqa elektron vositalari orqali materiallarni nashr etish, qayta nashr etish va nusxa ko`chirish;

tarqatish — O‘zbekiston Respublikasi hududida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i, axborotni uzatish va tarqatishning boshqa elektron vositalari orqali materiallarni sotish, yetkazib berish, tarqatish, yuborish va ularga obuna bo‘lish;

O‘zbekiston Respublikasi hududida materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish jamiyatda konfessiyalararo totuvlik hamda diniy bag‘rikenglik buzilishiga olib keladigan, diniy zo‘ravonlik va boshboshdoqlilikka chorlaydigan g‘oyalar hamda qarashlar tarqalishining oldini olish maqsadida dinshunoslik ekspertizasining ijobiy xulosasi olingandan keyin amalga oshiriladi.

Materiallarni O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqatish yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan turg‘un savdo shoxobchalari orqali fiskal xotirali nazarat-kassa mashinalari, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa onlayn nazarat-kassa mashinalari yoki virtual kassa, to‘lov terminallarini qo‘llash va pul tushumlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda bankka inkassatsiya qilish (banklarga topshirish) yo‘li bilan yoxud onlayn to‘lov tizimlari orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari, davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari kutubxonalari, shuningdek, boshqa kutubxonalar, veb-saytlar tahririylari va jismoniy shaxslar tomonidan ijobiy xulosa olmasdan, xorijda tayyorlangan materiallarni aholiga umumiyo foydalanish uchun taqdim etish taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko‘ra, “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”.

Xabaringiz bor, joriy yilning 6 iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunni imzoladi. Ushbu Qonunga ko‘ra, din masalalari bo‘yicha bir qancha o‘zgarishlar, qo‘srimchalar va yengilliklar berildi. Shuningdek, diniy ta’lim muassasasidan tashqarida diniy ta’lim berish faoliyati taqiqlandi.

Darhaqiqat, bugungi kunda internet tarmoqlarda ayrim shaxslarning “o‘zicha” aholiga diniy ta’lim berishi, noan’anaviy aqidalarni tarqatishi, mutaxassis bo‘lmagan shaxslar tomonidan sof diniy masalalar bo‘yicha biryoqlama tushunchalar berishi teztez uchrab turibdi. Bu esa aholi orasida turli xil tushunmovchiliklarga, insonlarning ongiga salbiy ta’sir qilishiga, bundan tashqari, jamiyatda diniy masalalar bilan bog‘liq ixtiloflar kelib chiqishiga, aholining yot g‘oya va qarashlar ta’siriga tushishiga sabab bo‘ladi. Shu maqsadda, Qonunning yangi tahririda diniy ta’lim muassasasidan tashqarida diniy ta’lim berish noqonuniy faoliyat sifatida belgilandi.

Vakolatli organ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish, tarqatishga mo‘ljallangan materiallar ekspertizadan o‘tkaziladi va uning yakunlari xulosa shaklida rasmiylashtiriladi.

Xulosada quyidagilar ko‘rsatiladi:
ekspertiza o‘tkazilgan joy va sana;
ekspertizani o‘tkazish uchun asos;
ekspert to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
ekspertiza obyekti;
tadqiqot jarayoni bayoni;
ekspert tekshiruvlari natijalari va yakuniy xulosa (ijobiy yoki salbiy);
ekspertning shaxsiy imzosi.

Xulosada qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa ma’lumotlar ham ko‘rsatilishi mumkin

Vakolatli organ xulosani tayyorlashda davlat boshqaruvi organlari, xo‘jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, jamoat va diniy tashkilotlardan o‘z yurituvidagi masalalar bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish uchun belgilangan tartibda o‘zaro axborot hamkorligi yo‘li bilan, shu jumladan, elektron tarzda zarur hujjatlar va axborotlarni so‘rash va olish huquqiga ega.

Materiallar matni lo‘nda, oddiy va ravon tilda bayon etilgan bo‘lishi, ularni turlicha sharhlash va talqin qilinishiga olib kelmasligi kerak. Materialning jumlalari rasmiy til uslubidan foydalanilgan holda umume’tirof etilgan imlo qoidalari asosida tuzilishi, xorijiy tillardan tarjima qilingan so‘zlar, unda foydalaniladigan tushuncha va atamalar mazmuniga muvofiq, turlicha sharhlash imkoniyatini istisno etadigan holda, bir xilda bayon etilishi lozim.

Diniy tashkilotlar va jismoniy shaxslar materiallarni o‘z ehtiyojlari uchun tijorat maqsadlarini ko‘zlamagan holda O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi va Davlat xavfsizlik xizmatining Chegara qo‘sishnari davlat chegarasidan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan materiallarni ekspertizadan o‘tkazish uchun darhol vakolatli organga yuboradi.

Shu jumladan, internet tarmoqlari foydalunvchilariga, yashash manzilda va xorijda istiqomat qiluvchi O‘zbekiston fuqarolariga hukumat tomonidan taqilangan terroristik hamda diniy ekstremistik tashkilotlarga a’zo bo‘lishi, ular tomonidan chiqarilgan yot g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi video, audio materiallarni ma’lumotlarini har qanday shaklda ko‘rishi va eshitishi hamda qo’llab-quvvatlashi, ushbu materiallarni bosma shaklda yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatishi yoxud saqlash – O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Jinoyat kodeksining 244³-moddasi ko‘ra diniy mazmundagi materiallarni qonunga xi洛f ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish bazaviy hisoblash

miqdorining yuz baravaridan ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Bunda diniy mazmundagi materiallar deganda, turli xildagi diniy adabiyotlar, (kitob, qo‘lyozma, risola va h.k.) diniy varaq va plakatlar, diniy mazmundagi video, audio materiallarni hamda diniy mazmudnadgi Internet-saytlarni tushunish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuning 19-moddasiga binoan diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo‘ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarini O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir.

Shuningdek, chet elda nashr etilgan diniy adabiyotlarni olib kelish va tarqatish, ularning mazmuni qonunchilikda belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tkazilganidan keyin amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 145-moddasiga ko‘ra, voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, xuddi shuningdek ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitish — bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmisht soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Bunda voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga noqonuniy tarzda jalb etishga turli yo‘llar bilan, masalan aldash, moddiy rag‘bat va’da qilish, o‘ch olish, qo‘rqtish, qasos olish tuyg‘usini singdirish yoki boshqa sabablarni ko‘rsatib majburlash yoxud ko‘ndirish jinoiy javogarlikka asos bo‘ladi.

Ma’lumot uchun, diniy materiallar ya’ni dunyodagi turli dinlarning asoslari, tarixi, mafkurasi, ta’limoti va sharhlari hamda marosimlarini o‘tkazish amaliyotini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqalar va boshqa bosma nashrlar, audiovizual asarlar (tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozmalari, multfilmlar, anime, xentay va shu kabilar), axborot tashuvchi elektron jismlarni O‘zbekiston Respublikasi hududida tayyorlash, olib kirish, tarqatish uchun albatta, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan ekspertizadan o‘tkazilishi shart.

O‘zbekiston hududida muomalada bo‘lishi taqilangan diniy mazmundagi materiallarning ro‘yxatini tuzish davriyligiga aniqlik kiritildi – har yili, kamida ikki marta. Eslatib o‘tamiz, ro‘yxat Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan tuziladi;

-diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish yoki tarqatish uchun Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaga taqdim etiladigan hujjatlarning ro‘yxati qayta ko‘rib chiqildi:

- endi bunday materiallarni tayyorlash uchun ham, ularni olib kirish yoki tarqatish uchun ham ro'yxatdan o'tganlik haqidagi guvohnoma nusxasi talab etilmaydi;

- materiallarni tayyorlash uchun nashr etilishi rejalashtirilgan materiallar haqida aynan qanday ma'lumotlar taqdim etilishi yuzasidan aniqlik kiritildi: materialning nashrdan chiqariladigan adadi, foydalanilgan manbalarning ro'yxati (adabiyotni tayyorlashda bir nechta manbalardan foydalanilganda), material tarjima qilingan taqdirda – uning qaysi adabiyotdan tarjima qilingani, qayerda chop qilingani va to'liq nomi;

- nashrga tayyorlashga mo'ljallangan material muallifi yoki tarjimon diniy ma'lumotga ega bo'lsa, endi uning diniy ma'lumotga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi talab etiladi. Bunday hujjatga ega bo'lмаган taqdirda, bu haqda vakolatli organga kiritiladigan xat yoki arizada ko'rsatiladi.

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda saqlash va olib kirish yoki tarqatish O'zbekiston qonunlariga mutlaqo ziddir va buning uchun amaldagi qonun va normativ hujjatlarda belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga asos bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to`g`risidagi qonun
2. <https://diniymaterial.uz/en>
3. <https://dinshunoslik.uz>
4. <http://lex.uz>
5. SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan murojaatnomasi
6. Diniy aqidaparastlik , terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashning ma'naviy-marifiy asoslari o`quv qo'llanma
7. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-apreldagi 180-som qarori
8. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish va tugatish tartibi to'g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2018-yil 31-maydagi 409-som qarori.
9. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g`risida (O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g`risida" 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-som va "Davlat xavfsizlik xizmati to'g`risida" 2018-yil 5-apreldagi O'RQ-471-som qonunlari)" 2018-yil 20-sentabrdagi 748-som qarori